ISAJON SULTON QISSALARIDA SHAMOL DETALINING BADIIY-G‘OYAVIY TALQINI

Gafurova Dilobar G‘ayrataliyevna
Farg‘ona davlat universitetining 3-bosqich doktoranti

Annotatsiya
Mazkur maqolada shamol detalining asar strukturasidagi ahamiyati, muallif g‘oyasini yoritishdagi roli Isajon Sultonning “Onaizorim” qissasi misolida tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari bo‘yicha shamolning peyzaj tasviri, ijtimoiy munosabatlar, ruhiy kechinmalar, qahramon qiyofasini yaratish kabi qator funksiyalari ko‘rib chiqildi, tizimli o‘rganildi.
Kalit so‘zlar: *“Onaizorim” qissasi, shamol detali, psixologik detal, milliylik, peyzaj tasviri.*

KIRISH

So‘nggi yillarda yaratilayotgan badiiy asarlar mazmuni, mohiyatida inson ruhiyati, xarakteri masalasining teranlashuvi, tagma’nolarni anglash, polifonizmning kuchayishi, mavjud andozalardan chekilib, yangi usul, tasvir fragmentlarini sinovdan o‘tkazish kabi qator tajribalarni kuzatish mumkin. Inson tafakkuri, ruhiyatining birinchi planga ko‘tarilishi bugungi hikoya va romanlar qatori qissachilikda ham ko‘zga tashlanadi. Jumladan, Normurod Norqobilov, Nazar Eshonqul, Isajon Sultonov, Ulug‘bek Hamdam kabi ijodkorlar qissalarida qahramonlarning fikrlash tarzi, tafakkur olami, ichki qiyofasini keng ko‘lamda yoritish, ijtimoiy muammolar, olam va odam munosabati, inson kamoloti, ma’naviy yuksalish masalalari ilduziga chuqur kirib borish holatlari namoyon bo‘lmoqda. Ulardagi mavzu ko‘lamlarining kengligi, tasvir vositalari, ramziy-majoziy obrazlar tizimidagi xilma-xilliklar kitobxonlar orasida estetik did, badiiy saviyaning ortishiga salmoqli ta’sir ko‘rsatmoqda. U. Normatov qayd etganidek: “Bugungi qissachiligimizga nazar tashlaganda birinchi galda undagi mavzu, shakliy, uslubiy jihatdan rang-baranglik e’tiborni tortadi; ular orasida tarixiy, zamonaviy, ijtimoiy-siyosiy, oilaviy-maishiy, ishqiy mavzulardagi ham an’anaviy romantik, realistik, ham modernistik, ham jiddiy, ham yumoristik, sarguzasht, detektiv yo‘nalishdagi asarlarni ko‘rish mumkin”[1; 47]. Albatta, bir xil qolipga solingan mavzulardan ko‘ra, nasrda rang-baranglikni ta’minlash, davrning ijtimoiy-ma’naviy muammolariga badiiy asar vositasida turfa yechimlar izlash bugungi adabiyotning asosiy jihatlaridan biridir.

Isajon Sulton qissalarida yangicha g‘oyaviy-badiiy chizgilar, qahramonlarni turli rakurslarda kashf qilish, ularga xos ruhiy-falsafiy talqinlar, nutq uslublarini ko‘rish mumkin. Shuningdek, adib ijodidagi eng muhim xususiyatlardan biri, uning milliy zaminda sobit turishi, asarlarida qadriyat va an’analar, milliy tarbiya, Sharqona odatlarning bo‘rtib ko‘rinishidir. “Isajon asarlariga xos yoqimli lirizm, Sharq adabiyotiga mos sokin bayon, xalq ertaklarining rivoyaviy uslubi, ba’zan esa mashhur jahon adiblarining asarlariga ergashish kabi ko‘pdan-ko‘p xususiyatlar” [2;16] o‘quvchi diqqatini tortadi. Aytish mumkinki, muallifning o‘ziga xos uslubi o‘zbek adabiyotida “yangi bir to‘lqinni” dunyoga keltirdi. Ijodkorning “Onaizorim” qissasida Ra’no obrazi

orqali Sharq ayollariga xos aql-farosat, sadoqat, hayo, donolik, sabr-toqat kabi juda ko‘p fazilatlar yoritilgan.

ASOSIY QISM

“Onaizorim” qissasida bir ayol umrining uch fasli qalamga olinib, qissa qahramoni Ra’noning qizaloqlik, kelinlik, onalik davrlari, oiladagi tarbiya, ota-onaning o‘rni, o‘zaro hurmat, mehr, odob-axloq masalalari, farzandlik mas’uliyati kabi odatlar keng planda ochib boriladi. Muallif har bir davrning muhim xususiyatlarini sinchiklab o‘rganib, uni badiiy tasvirda g‘oyat ishonchli yaratadi.

Asar besh qismdan tashkil topgan bo‘lib, muqaddima qishloqda bahor tasviri bilan boshlanadi. Bepayon keng manzaralarda ona yurt tasviri yorqin bo‘yoqlarda chiziladi. Turfa chechaklar isi, shakli, rangi, qushlar sayrog‘i, qurt-qumursqa sasigacha quyuq tasvirlar yaratiladi. Manzarada shamol detali keng o‘rin egallaydi va peyzajni boyitadi:

“shamollar qatida islarini, gulchanglarini va urug‘larini ko‘tarib uchib, boshqa yerlarga sochadi, kurtaklarni ochadi, gulkosalarni to‘kadi, yerni uyg‘otadi” [3; 5]. Sahmol asarga oddiy tabiat hodisasi sifatida kiritilsa-da, uning olamni uyg‘otuvchi kuch ekani va dinamik harakatda tasvirlanishi orqali kechayotgan hayot maromi yoritiladi. Bundan tashqari kichkina qizaloq Ra’noning guldek o‘sib-unisha va taqdir shamoli uni boshqa yerga uchirib ketishi va avlod zanjirining davom etishiga ramziy ishoradir. Qizaloq Ra’noning kundalik hayoti orqali qishloq tabiati, turmush-tarzi, qarindosh-urug‘, qo‘ni-qo‘shni munosabatlari yoritib boriladi. Bosh qahramon – qizaloq Ra’no “O‘zidan katta chelaklarni ko‘tarib, daranglatib yurib qoladi. Yugurib tinmaydi(shamoldek harakatda), guldor ko‘ylaklarni yaxshi ko‘radi (tabiatga bog‘liqlik), ammo o‘yinga berilganidan kir qilib qo‘yadi, “kir bo‘pti-ku” deyishsa, “voy o‘lay” deb egilib etagini ko‘tarib qaraydi” [3; 6]. Ko‘zlari chaqnab turadigan bu kichkina qiz uy yumushlarida onasiga qarashadi. Dugonasi Xosi bilan mehmon-mehmon o‘ynaydi, ona bo‘lib bolalariga qaraydi. Shu kabi sahnalar orqali muallif milliy ruhiyatni qissaga singdirib boradi. Ra’no har qadamda onasining o‘gitlarini olib ulg‘ayadi: “Kattalar senga salom berishsa, alik olmaysan, xuddi eshitmaganday, shoshib o‘zing salom berasan. Erkak kishiga tik boqma, yo‘lingdan chiqsa, chetga o‘t. Mehmon kelsa, darrov yangi to‘shaklardan opkelib solasan, fotiha qilingach, dasturxon yozasan. Dasturxonni teskari yozib bo‘lmaydi, nonni toq qo‘yib bo‘lmaydi..”[1]. Ko‘rinishidan sodda, oddiy bayon etilgan voqealar asosida yo‘qotilish mumkin bo‘lmagan asriy an’analar, urf-odatlar, tarbiyaning o‘chog‘i oliada ekani ko‘rsatiladi. Go‘daklikdan odob-axloq ahkomlarini bola ongiga singdirish, nabototu hayvonotga munosabatni uqtirish asar leytmotivini belgilaydi. Bevosita Ra’no obrazi orqali qizaloqning onasi tadbirli, aqlli, pokiza ayol ekaniga urg‘u berilgan. Bu esa o‘z navbatida barcha o‘zbek onalariga xos fazilatlarning badiiy ifodasi hisoblanadi: “Onaizorim” asari milliylikni chuqur badiiy va falsafiy qatlamlarda aks ettirgan asarlardan biridir. Asarda milliylik, avvalo, ona obrazi orqali ifodalanadi. Ona timsoli bu yerda oddiy qahramon emas, balki millatning ramziy modeli sifatida talqin qilinadi. U o‘zida tarixiy davomiylik, ma’naviy

[1] Sultonov I. Bog‘i eram. Qissa va hikoyalar. –Toshkent: Sharq, 2015. – B. 10.

meros va axloqiy qadriyatlarni mujassamlashtiradi”[2] Asarda shamolning yana bir poetik vazifasi psixologik detal sifatida kelishidir. Ya’ni shamol, yomg‘ir kabi tabiat hodisalari orqali turmush qiyinchiliklari, ichki ziddiyatlar yuzaga chiqadi.

“Shamollarda, yomg‘irlarda ona javray-javray supra yoyib, xamir qorar, bir yoqda uka chirillab yig‘lab, bir yonda ona yumushlariga ulgurolmay sannaganida, onamga yordam beraqolay deb chopib borib kichkina mushtchalari bilan xamir qorarkan, tezroq otam kelaqolsaydi, deb orzu ham qilar edi” [3; 7]. Bu o‘rinda ona ruhiyatidagi taranglik, qizaloqdagi havotir shamol tasvirida ochiladi, ota esa umid, xotirjamlik timsolini yaratadi. Qissaga “ariqcha” obrazi alohida kiritilgan bo‘lib, u Ra’noning sirdoshi, dardkashi, maslahatchisi, dugonasi sifatida beriladi:

“ – Ha, ariqcha, oqyapsanmi?
– Oqyapman.
– Bugun ukam o‘lib qoldi.
– Voy, nima bo‘ldi?
– Bilmadim… Qo‘rqib ketyapman, ariqcha.
– Qo‘rqma…
– Yaxshi bolacha edi… Qo‘lchalarini o‘ynatib, chug‘urlab yotar edi.
– Ha, ukang yaxshi bola edi.
– Onam nima qiladi endi?
– Bechoraga qiyin bo‘pti.
– Yupataman deb, “Onajon, xafa bo‘lmang, yana bitta ukacha tug‘ib olasiz” desam, rosa yig‘ladi.
– Endi sen unga mador bo‘l, xayolini chalg‘it” [3;16].

Qizaloqning ariqcha bilan suxbati orqali muallif oiladagi yaxshi-yomon hodisalar haqida xabar beradi, jamiyat, insonlar munosabatlari, yashash tashvishlari, hayot mashaqqatlarini ochib boradi. Keyinchalik, yoshi o‘tgach, otasi ekkan behi qizning hamrohi, suxbatdoshida aylanadi: “Qizgina endi ota ekib ketgan behi bilan so‘zlashar edi. “Otamning behisi, o‘syapsanmi? – O‘sish qayda, ona qizim. Bir amallab jon saqlab turibman. Ko‘ryapsanmi, madorim quridi. Mayda shoxchalarimning uchlari ham qurib bormoqda”. Behi bilan qizning dialog iota va qiz suxbati kabi taassurot uyg‘otadi. Ariqcha qizchaga dugonasi, qari behi otasi kabi yaqin turadi. Ona va qiz dialoglari vositasida esa uy-ro‘zg‘or tutumlari, mavsumiy va tarbiyaviy odatlar yoritib borilgan. Shuningdek, mahalliy xalq orasidagi turli tadbirlar, qishloq hayotidagi faoliyatlar va irim-sirimlar aks ettiriladi, bunday qarashlarda shamol detali faol aralashadi. Masalan, “Go‘shtni tuzlab, shamolli joyga osasan, shunda u qoq go‘shtga aylanib, ancha muddat buzilmay turadi”, “Nonni shamolda yo shabadada qoldirma, ochiqda qolsa, nonning suvini shabada quritib ketadi”, “qozon qirmochini yesang, to‘yingda shamol esib, yomg‘ir yog‘adi, boshqa yemagin,”[3] “Gapimizni qarg‘a eshitmasin yo shamol opketib yoymasin deyman-da”[4], kabi jumlalarni ko‘plab sanash mumkin. Qishloq sharoitida shamol go‘shtni buzulishdan asraydi, ammo nonni quritib qo‘yadi. To‘yida shamol

[2] Bobomurodov I. “Onaizorim” qissasida ona obrazining uch avlodi va milliy qadriyatlar talqini.Innovatsiya va taraqqiyot. Vol.04 N.5 2026. – B. 129.
[3] Sultonov I. Bog‘i eram. Qissa va hikoyalar. –Toshkent: Sharq, 2015. – B. 49.
[4] Sultonov I. Bog‘i eram. Qissa va hikoyalar. –Toshkent: Sharq, 2015. – B. 52.

turishi, yomg‘ir yo‘g‘ishi qadimgi xalqlardan qolgan mifologik tasavvurlardan kelib chiqqan irim, shamol gapni olamga yoyishi esa uning xabarchilik(chaqimchilik) xususiyatidan darak beradi. Tabiatda shamol yomg‘ir isini, gul, maysa isini tarqatadi, gap tashishi majoziy bo‘lib, bundan xabarni birov eshitmasin, yoyilib kelmasin degan ma’no kelib chiqadi. Shamol qissada vaqtning shitob bilan o‘tishini bildiruvchi detal hamdir. Qizaloqning ulg‘ayish bosqichlarida shamollar suron solib esishi, kunbotardan kunchiqarga, kunchiqardan kunbotarga esib turishi takroriy eslatiladi:

“Bu yerlarda shamollar suron solib esaveradilar: kunbotardan kunchiqarga, kunchiqardan kunbotarga”[5].

Muallif Ra’noning ulg‘ayishi barobarida el-yurt udumlari, to‘y, aza marosimlari, alla, yor-yor kabi xalqona qo‘shiqlarni, xatto ism qo‘yish rasmlarigacha maromida to‘xtalib o‘tadi. Kitobxon asar davomida Ra’no qizaloqdan Ra’no buvigacha bo‘lgan umr yo‘lini bosib o‘tadi, bu elning ajoyib hayoti, odatu qarashlari, turmush tarzi bilan juda yaqindan tanishadi, o‘zini shu kamsuqum, beg‘araz, mehnatkash insonlar orasida his qiladi. Qahramon umrining so‘ngida ham shamollarga duch keladi, faqat bu endi oddiy shamollar emas, dunyo hayotining ramziy ifodasi sifatida beriladi: “Yuziga shamollar urildi. – Siz ham shu yerda ekansiz-da, – dedi u yana suyunib. – Esingizdami, sochlarimdan yulqilar edingiz? Sochlarim qop-qora, uzun edi-da… Sadolanishlaringizni bosaman deb qancha qichqirsam ham ovozim g‘uvullashlaringizni bosib ketolmasdi. Mevalarni duvullatib to‘kib o‘tardingiz, osmonda qat-qat bulutlarni to‘dalashtirib haydab kelardingiz. U bulutlar yomg‘irlarni yog‘dirar edi, o‘sha yomg‘irlar ostida chunon qichqirib o‘ynar edim-ki. – Alvido… – deyishdi shamollar, ortga qarab esarkan”[6]. Bu o‘rinda shamollarning ortga esishi, qahramon bilan olg‘a ketmasligi ayolning umri nihoyasiga yetganini anglatadi, u yog‘iga shamol o‘tolmasligini, ramziy ma’noda shamol dunyoning unsuri, tiriklikka oid ekani tushuniladi.

Asarda kishilar xarakterini yoritishda shamolning yaxshi-yomon sifatlaridan foydalanadi: “qishloqning shamol esadigan tomonida eski bir kulbada yashovchi qora yuzli bir sulloh odam ham bor edi”, yoki “bir mahallar ariq bo‘ylarida yelday uchib chopganlari, o‘ynaganlari” [3; 49]. “Birinchi jumlada “shamol esadigan tomon” sovuq, havotirli, yoqimsiz tuyuladi, sababi Ra’no o‘sha tomondan qo‘rqib, cho‘chib o‘tadi, ikkinchi o‘rinda yeldek chopish bolalikka xos jo‘shqinlikni bildiradi. Ammo “bolani qarovsiz qoldirsang, mayna kelib ko‘zini cho‘qib oladi degan gap esiga tushdi-yu, “Voy o‘lmasam”, deb yelday uchdi”, bu holatda “yeldek uchish” o‘yinqaroqlikni emas, farzandiga zarar yetishdan qo‘rqib yugurayotgan ona qalbidagi havotirni ko‘rsatadi. Mana shu bola ulg‘ayib, yigit bo‘lganida, muallif uni “Davlatbekning mo‘ylovi chiqdi, sabza urdi, o‘tday, quyunday, shamolday bola bo‘ldi” [3; 83], deya ta’riflaydi. Bu o‘rinda endi shamol yigitlik shijoati, g‘ayrati, jo‘shqinligining ifodasi sifatida ijobiy ma’no tashiydi.

[5]Sultonov I. Bog‘i eram. Qissa va hikoyalar. –Toshkent: Sharq, 2015. – B. 53.
[6]Sultonov I. Bog‘i eram. Qissa va hikoyalar. –Toshkent: Sharq, 2015. – B. 100.

XULOSA

Asar muallifning o‘z onasiga bag‘ishlangan, u orqali barcha onalarni, onalikni, yaratuvchilikni ulug‘laydi. Ona tasvirini yaratishda yozuvchi tabiat unsurlaridan foydalanadi, tabiatni onaga qiyoslaydi. Tabiat ham ona kabi yaratadi, o‘stiradi, himoya qiladi. Onani bahor, suv, tuproq, shamolga qiyoslaydi. Xususan, shamolning rizq keltirishi, gullarni changlatib, olamni yashnatishi, qanotida turli bilimlarni olib kelishi kabi xususiyatlari onaga ko‘chiriladi: “Sen shamol kabi emasmiding, ona? Boshim uzra hayotbaxsh esib, umr kurtaklarini ochgan, havolarni almashtirib, gullarni yashnatgan, unum keltirgan shamollar kabi yelib-yelib o‘tgan” [3; 03]. Ona farzandiga hayot berishi, havodek zarurligi, bolaning baxti, guldek yashnashida uning o‘rnini hech kim bosa olmasligi bayon etiladi, ona tasvirida shamol detalining qo‘llanilishi tasvirga estetik joziba beradi, ta’sir ko‘lamini orttiradi. Shamoldagi jonsaraklik, hayotbaxshlik onaga qiyoslansa, suron solib esishi, uning zabtida bug‘doylar shitirlashi, qamishlar shovullashi vositasida muallif o‘tib borayotgan hayot maromini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. –Toshkent: “Ma’naviyat”, 2001.
2. Qo‘chqorova M. Badiiy so‘z va ruhiyat manzaralari. –*Toshkent:* “Fan”, 2007.
3. Sultonov I. Bog‘i eram. Qissa va hikoyalar. –Toshkent: Sharq, 2015.
4. Sultonov I. Qoraqush yulduzining siri. – Toshkent: “G‘afur G‘ulom”. 2019.